

O'ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARI MARKAZLARINI REJALASHTIRISHDA LANDSHAFT DIZAYNI ME'MORCHILIGI MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING ROLI

Dotsent., KAMILOVA XOLIDA XABIBULLAEVNA, magistrant JAHONOVA SAINA G'ANISHER QIZI

Toshkent Arxitektura-Qurilish universiteti

Annotatsiya: Maqolaning asosiy maqsadi milliy urf-odatlariga tayangan holda zamonaviy arxitekturaning talablarini ifodalash, milliylikni saqlash shaharsozlikda landshaft arxitekturasini, zamonaviy shaharlar xududini ko'klamzorlashtirish, estetik shakllantirish va klassifikatsiyalash buyicha loyihalash. Ko'cha, yo'l va transport maydonlarini loyixalashni asosiy prinsiplarini yaratilishi va piyodalar harakatini tashkillashtirish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ko'klamzorlashtirish, landshaft me'morchiligi, dekorativ, unifikatsiyalash, funksional rejalashtirish, hajmiy fazoviy, texnik - iqtisodiy, ta'mirlash, shahar dizayni.

Аннотация: Основная цель статьи - представить требования современной архитектуры на основе национальных традиций, сохранения национальной идентичности в градостроительстве, ландшафтной архитектуре, озеленении современных городских территорий, эстетическом дизайне и классификации. Приведены основные принципы проектирования улиц, дорог и транспортных зон, а также предоставлена информация об организации движения пешеходов.

Ключевые слова: ландшафтный дизайн, ландшафтная архитектура, декоративность, унификация, функциональное планирование, объемно-пространственный, технико-экономический, ремонт, градостроительство.

Annotation: The main purpose of the article is to present the requirements of modern architecture based on national traditions, preservation of national identity in urban planning, landscape architecture, gardening of modern urban areas, aesthetic design and classification. The basic principles of designing street, road, and transport areas are provided and information on the organization of pedestrian traffic is provided.

Key words: landscaping, landscape architecture, decorative, unification, functional planning, volume-spatial, technical-economic, repair, urban design.

Prezidentimizning qat'iyati va jasorati tufayli mustaqillik yillarida shaharsozlikni rivojlantirishda erishilgan tarixiy haqiqatni qaror toptirish, xalqimizning bukilgan qaddini tiklashga kirishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlarida aholi yashash xududlarini obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Hozirda ko'klamzorlashtirish ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy tashkilotlar, nihol o'stiriladigan ko'chatxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'klamzorlashtirishda qo'llaniladigan manzarali daraxtlar va butalar turlarini kengaytirish, janubiy shaharlar markazlari sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy darajada asoslangan texnologiya bo'yicha parvarishlashni tadbiq etish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Landshaft me'morchiligi muhitini shakllantirish. Landshaft arxitekturasini janubiy shaharlar xududida ko'klamzorlashtirishni estetik shakllantirish va klassifikatsiyalash hamda tipologik-jarayonlar buyicha loyihalashni taqozo etadi.

Landshaft arxitekturasini obyektlarini loyihalash bo'yicha asosiy masalalar yaratilishi uchun kichik arxitektura formalarini ro'yxatlari, obodonlashtirish elementlari, jihozlari, shuningdek interyerlarni ko'klamzorlashtirish va qishki bog'larni tashkil etish, dekorativ gulzorlarni bezash masalalari chizmalarda, loyihalar dasuratlarida ko'rsatilishi lozim.



Transport vositalarini. Ko‘cha yo‘l va transport maydonlarini loyixalashni asosiy prinsiplari yaratiladi, rejalashtirishni unifikatsiyalashgan chizmalar asosida transport va piyodalar xarakatini tashkillashtirishga qarab chiqilishi lozim. Turli tipdagi yo‘lovchi transportini takomillashtirish yo‘llari va ulardan qo‘llanish ko‘rsatiladi.



Tashqi transport to‘g‘risidagi (avtomobil, temir yo‘l, suv, xavo) ularni qurilmalarini joylashtirish, axoli joylarini rejalashtirish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishga bog‘liq asosiy tushunchalar beriladi.

Janubiy shahar markazlarining piyodalar zonalarini me‘moriy yechimlari. Janubiy shaharlar markazlarining ko‘p funktsiyali piyodalar ko‘chasi va maydonlari me‘moriy shakllanish taxlili kompleks o‘rganilishi lozim.



Janubiy shaharlar markazlarining piyodalar ko‘chasi va zonalarini me‘moriy - tipologik yechimlarini rivojlanishning asosiy an‘analarini aniqlanadi, shaharsozlikni funksional rejalashtirish, hajmiy fazoviy, texnik - iqtisodiy, ta‘mirlash va me‘moriy kompozitsion muammolari taxlil etiladi.

Me‘morlar va shaharsozlik sohasida ishlayotgan muxassislar uchun shaharlar xududini to‘la muxandislik obodonlashtirish va turli axamiyatga molik xududlarni obodonlashtirish: turar joy rayoni, mikrorayon, ko‘cha, maydonlar, skverlar, bulvarlar, bog‘lar va parklar, sport inshootlari, shahar xududini vertikal planlashtirish, yomg‘ir suvlarini qochirish yo‘laklarni loyihalashtirish

avtomobil to'xtash joylari, xo'jalik maydonlari va turar joy mikrorayonlarini shuningdek mikrorayon yer osti muxandislik tarmoqlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shaharsozlikda shahar ko'chalarini, maydonlarni, park bog'larini sun'iy yoritqichlar bilan yoritish masalalari ham yechilishi lozim.



Bog'lar tarkibiy shakllantirilmasdan, puxta o'ylangan bo'lishi va me'moriy bog'bonlar bilan tuzgan tarx-rejalari asosida yaratilishi lozim.



Unda daraxt va butalar, gul ekish, bog' qurilishlariga oroyish berish, ayniqsa, favvoralar, saroy va ko'shklar barpo etish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bog'lardagi o'simliklar turi va navlarini tanlash, bir-biridan keyin ochiladigan mavsumiy gullar, manzarali va mevali daraxtlarni aralash ekish, xullas, landshaft me'morchiligi va me'moriy muhit orastaligi hisobga olingan. Demak, aytish mumkinki, bugun bog' va shaharsozlikning muhim tarkibiy qismiga aylangan landshaft dizaynining ilk ko'rinishlari ota bobolarimiz yaratgan bog'larda keng qo'llanilgan.



Shahar dizayni shaharsozlik, arxitektura, shahar infrastrukturasini va landshaftining tarkibiy qismi sifatida qaralishi, quriladigan har bir inshoot, shakllantiriladigan infrastruktura esa badiiy-estetik mohiyatga betakror, rang-barang, qiziqarli ko'rinishga ega bo'lishi lozim. Buning uchun shaharsozlar, arxitektorlar dizaynerlar bilan ijodiy hamkorlik o'rnatishi dardkor.

Shahar dizayni rang-barang sohalar bilan bog'liq ijodiy faoliyat turidir. U arxitektura, yo'l transporti, savdo-sotiq, madaniy- maishiy xizmatlar uyushtirish, kommunikatsiya, mebelshunoslik, ijtimoiy boshqarish va tabiiy ravishda, san'atning barcha janrlarini, turlarini bilishni talab etadi. Shuning uchun «Shahar dizayni» kursini ishlab chiqish va mutaxassislar tayyorlash jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, shahar dizaynida zamonaviy, g'arbonsa va an'anaviy, sharqona san'at janrlarini, turlarini uyg'unlashtirish imkoni kattadir. Ushbu janrlarni, turlarni sintezlashtirish mutaxassisni erkin, keng izlanishlarga undaydi va uning asarlarini ommalashtiradi, haëtiy qiladi. Demak, shahar dizayni badiiy-estetik ijodni ijtimoiy hayotga, amaliyotga yaqinlashtiradi, izlanishlarga pragmatik yo'nalish beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Glazichev V.L. Дизайн как он есть. — М.: Европа.-2006. - В.17-19.
2. Shimko V.T. Shahar muhitining me'moriy shakllanishi.-М.:Oliy maktab, 1990.- В.10-12.
3. Mixaylov S.M, Mixaylova A. S. Dizayn asoslari. - М.: Dizaynerlar uyushmasi Rossiya, 2004. - В.42-48.